

## ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM TARIXINING MANBALARDA AKS ETISHI

Dunyo Qosimova,  
Sejong Universiteti talabasi  
Telefon: +99881052121  
[dunyakosimova@gmail.com](mailto:dunyakosimova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Afrig'iylar sulolasi (305-995 yillar) tarixshunosligining asosiy yo'nalishlari va muammolari tahlil qiliniib, sulolaning kelib chiqishi va etnik mansubligi, siyosiy maqomi, ichki siyosati, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti kabi masalalar o'rganiladi. Shuningdek, milliy va xorijiy tarixshunoslarning tadqiqotlari tahlil qilinib, Afrig'iylar tarixini yoritishda mavjud bo'shliqlar va muammolar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Afrig'iylar, oli-Iroq, Sosoniylar, Eftaliylar, Turk xoqonligi, siyosiy maqom, vassal-tributor

Tadqiqotimizda Afrig'iylar sulolasi davri tarixini yorituvchi manbalarni bir necha guruhlar va davrlarga bo'lgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xususa ularni 2 guruhga bo'lib, o'rganish lozim:

V-VII asrlardagi Xitoy va Vizantiya manbalari

VIII-XIV asrlardagi arab va fors manbalari

Birinchi guruh- xitoy-vizantiya manbalari Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixini yoritishda juda qisqa va noaniq bo'lib, ularda asosan siyosiy voqealar, o'zaro elchilik aloqalari ma'lumotlari o'rin egallaydi. Bunga misol qilib

vizantiyalik tarixchi Menandrning turklar yurtiga yuborilgan vizantiyalik Zemarx elchiligi to'g'risidagi hikoyani ko'rishimiz mumkin. Milodiy 568/569-yili G'arbiy Turk xoqonligining qarorgohida bo'lgan Vizantiya elchisi Zemarxning safari Xoliatlar orqali o'tgan. Xoliatlar haqida ham turli bahs-munozaralar mavjud. Minorskiy o'z maqolasida "Xoliatlar shakl jihatdan ellin etnonimi bo'lishi kerak. Ular haqida bilganimiz shuki, ularning qal'alari va shaharlari bor va ular ulkan ko'l yaqinida yashagan. Ular, shuningdek, turklar vasslaridan ajratilgan xoli hudud" edi". Xoliatlar yurti aynan Xorazm hududi ekanligini 1873-yilda Lerch, 1877-yilda Veselovskiy, Bartold tadqiqotlarida Xorazmda shahar va qal'alar mavjud bo'lganligi, Amudaryo(Oxus) o'zani borib-borib ikkita Orol va Kazbiy ko'llarga quyilishi, va Xorazm cho'llar bilan o'ralganligini hisobga olib yuqoridagi fikrni tasdiqlaydilar. Boshqa bir guruh tadqitochilardan Blokley o'z asarida Xoliatni Xalluq sifatida ko'rsatib, Qarluqlarga ishora qiladi. Vasiliev o'z tadqiqotida Xoliatni Kaspiy dengizning qadimgi nomi "Хвалиское" bilan bog'laydi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, Xoliatlar aynan Xorazm hududiga to'g'ri keladi.

Ikkinchi guruh manbalari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ular asosan arab-fors manbalari bo'lib, arab bosqini arafasida Xorazm, arab bosqini va arablar bosqinidan keyingi davrlarda Xorazmning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar beradi. Afrig'iylar sulolasining siyosiy hayoti haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalar nihoyatda kam. Bunga misol tariqasida Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" asaridan olingan parchani ko'rsatishimiz mumkin. "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimlarni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilgan edi". Bundan tashqari, o'tgan davr

mobaynida birgina O'rta Osiyo hududining o'zida turlicha siyosiy mafkuralarga ega bo'lgan o'nlab davlatlar hukm surgan. Shu sababdan uzoq vaqt davomida tarixning qorong'i sahifalarini yoritib beruvchi ko'plab tarixiy asarlar umuman yo'qolib ketgan bo'lsa, ulardan ayrimlarining faqat ma'lum bir qismigina bizgacha yetib kelgan.

XII-XIII asrlarda yozilgan asarlarning Xorazm vohasiga tegishli qismidagi ma'lumotlar, ko'pincha bir-biriga zid bo'lib, ularga tayanib muhim tarixiy voqealar sanalarini yoki hikoya qilinayotgan voqeaning tarixiy haqiqatini anglash mushkul ish. Bu muammoga hatto, V.V. Bartold ham duch kelganini takidlab o'tgan .

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) davrida O'rta Osiyo aholisi uchun yangi din bo'lgan islom dini va uning asosida kirib kelgan yangi madaniyat mazkur hududa mavjud bo'lgan davlatlar rivojiga juda katta ta'sir qilgani shubhasiz. Beruniy zamonida Kat shahri nafaqat Xorazmning, balki butun O'rta Osiyoning eng yirik savdo-sotiq markazlaridan biriga aylanib ulgurgan edi. Afrig'iylar sulolasining poytaxti Kat shahri bu davrda Yettisuv, Oltoy, Janubiy Sibir, Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq, Volgabo'yi, Kavkaz va Sharqiy Yevropa hududlari bilan savdo yo'llari orqali bog'langan. Bunday sharoit Xorazm shaharlarida ilm-fan rivojiga ham sezilarli ta'sir qilgan. Shunday bir ijtimoiy-madaniy muhitda tug'ilib-o'sgan Beruniy ilm-fanga qiziqishi sabab, yoshligidan ko'pgina olimlarning e'tiboriga tushadi. Ulardan biri Afrig'iylar xonadonining yaqin qarindoshi Abu Nasr ibn Iroq bo'lib, olimning bobosi Xorazmshoh Iroq ibn Mansur, uning amakisi Xorazmshoh Muhammad ibn Mansur edi.

Abu Rayhon Beruniy X asrdagi Xorazmdagi siyosiy voqealar sabab Ray va Jurjon shaharlarida yashaydi. Bu yerda Erondagi Ziyoriylar sulolasidan Qobus ibn Vashmgir unga homiylik qilib, o'z saroyida vazirlik darajasini taklif qilgan .

Beruniy o'zining "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" (arabcha: الاثر البقية عن القرون الخالية) asarini Jurjon shahrida 27 yoshida 1000 yillarda yozib tugatadi. Bu asar yevropada "Xronologiya", o'zbek sharqshunosligida "Osor ul-boqiya" nomi bilan mashhur. Ushbu asarda yunonlar, rumliklar, eronliklar, turkiylar, sug'diylar, xorazmliklar, harroniylar (yulduzlarga sig'inuvchilar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va musulmonlar yil hisoblari, hayot va mashhur kunlarini mufassal tasvirlab beradi. Asarda ko'plab tarixiy voqealar, yahudiy va xristian tarixi, Tavrot va Injil bilan chuqur tanishadi. Arablarning islomgacha bo'lgan va islomdan keyingi tarixini sinchiklab o'rganib chiqadi turli millat va dinlarga oid ma'lumotlar, payg'ambarlar, soxta payg'ambarlar, podshohlar va mashhur shaxslar haqida ma'lumot berilgan. Ushbu tarixiy asar katta ahamiyatga ega. Chunki asarda Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixini yorituvchi ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Asarda Beruniy Afrig'iylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, Afrig'iy-xorazmshoh sulolalardan 22 hukmdorning ismlarini xronologik jihatdan ketma ketlikda keltirgan. Bu ma'lumotlar hozirgi kunda arxeologik va numuzmatik ma'lumotlar uchun muhim qiyosiy manba hisoblanadi .

Asarda Afrig'iylar sulolasiing hokimiyat tepasiga kelishi shunday izohlanadi : "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlagandan tarix ola boshladilar, bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari [ustidan] hukmronligini yurg'izgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashganidan 92 yil keyin bo'ldi. So'ngra ular tarix olishda eronliklarga ergashib, Kayxusravning [Xorazm]shoxlari deb ataluvchi naslidan bo'lgan har bir [podshoh davrining boshlanishidan] tarix oldilar. Nihoyat Kayxusrav davridan Ofrig`

podsholigi boshlandi. Eronliklar “gunohkor” Yazdijardni yomon habar keltiruvchiga yo’yanlaridek, [xorazmliklar] Ofrig`ni shum habar keltiruvchiga chiqardilar. Ofrig`dan keyin uning o’gli podshoh bo’ldi. [Ofrig`] Iskandar tarixining 616-yilida al-Fir ustiga o’z qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar ofrig` va uning avlodlari podshohligidan tarix oldilar”. Al-Fir Xorazm shahrining chekkasidagi loy vax om g`ishtdan qurilgan qal`a bo’lib, bir-birining ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo’rg`on edi. Bu barcha qo’rg`onlar tepasida Yamandagi G`umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi. G`umdon-tabballarning turar joylari bo’lib, San`a masjidi Jome ro’parasidagi toshdan qurilgan qal`adir. Aytilishicha , u to’fondan keyin Som ibn Nuh qurgan binolardandir.Som qazigan quduq ham o’sha yerdadir.Ba`zilar esa, bu Zahhok tomonidan Zuhra ismiga atab qurilgan haykal, deganlar. Al-Fir o’n milcha va undan ko’proq masofadan ko’rinar edi. Jayhun har yili uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; Nihoyat Iskandar tarixining 1305-yilida undan asar qolmadi” .

“Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya” arab tilida yozilgan. Bu kitobni birinchi marta Yevropa olimlariga tanishtirgan kishi sharqshunos va beruniyshunos olim Eduard Zahau edi. Olim asarni 1876-1878-yillarda Leypsigda arabcha nusxasini nashr etdi . 1879-yilda ingliz , 1943-yilda fors , 1957-yilda rus tillarida asar nashr etilgan.

S.P.Tolstov “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga to’xtalib, Xorazm vohasining ilk o’rta asrlar tarixini o’rganish ahamiyati haqida mufassal tasvirlab, unga juda yuksak baho beradi va Beruniyning “Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya” asarida keltirilgan Xorazm haqidagi ma`lumotlarning ko’pchiligi arxeologik tadqiqotlar natijasida o’z isbotini topganligini aytib o’tadi .

Yana bir manba bu Abu Ja'far at-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-lmulk" (qisqacha "Tarixi Tabariy") asaridir. Ushbu asar umumiy tarix tipida yozilgan asarlar sirasiga kirib, voqealar yilma-yil bayon qilingan. Biroq, bu asar shu tipdagi boshqa asarlarga qaraganda mukammalligi va daliliy manbalarga boyligi bilan anchagina farqlanadi. Asar olamning yaratilishidan 912-913 yillargacha bo'lgan Arabiston, Rum (Kichik Osiyo), Eron va Arab xalifaligi tarkibidagi barcha davlatlar xususan Xorazm tarixida bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida jamlagan. Bu asar arablarning Xorazmni egallashidan boshlab to 912 yilgacha ya'ni, Afrig'iy hukmdorlar tarixini o'rganishimizda asosiy va ishonchli manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu asar Movarounnahr va Xorazmning VIII–IX asrlar tarixini o'rganish bo'yicha eng ishonchli manbadir. Asarning nashrlaridan biri Xorazmda XIX asrda ko'chirilgan bo'lib, bugungi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 1229 raqam ostida saqlanuvchi qo'lyozmasi mavjud. Qisqartirilgan ruscha tarjima (tarjimon V.I.Belyaev) 1987 yili Toshkentda "История Табари", ya'ni "Tabariy tarixi" nomi bilan chop etilgan.

Biz o'rganayotgan davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy voqealar haqida ma'lumot beruvchi yana bir asar Ibn Havqalning (vaf. 976 y.) "Kitob ul-masolik va-l-mamolik" asaridir. Al-Istaxriy bilan shaxsan uchrashgan ibn Havqal bu haqida shu fikrlarni aytib o'tgan. "Men uning kitobidagi bir emas, bir nechta xaritalarni tuzatdim, so'ngra ushbu o'z kitobimni yozishga qaror qildim. Istaxriy kitobida uchragan xatolarni tuzatdim, kitobimga bir nechta yangi xaritalarni ilova qildim va ularni izohlab berdim".

Ibn Havqal ushbu asarni yozishda 943-yildan keyin savdogar sifatida Shimoliy Afrika, Janubi-G'arbiy (Ispaniya, Italiya), Eron, Hindiston bo'ylab qilingan

sayohatlarida to'plangan ma'lumotlari, shuningdek, Ibn Xurdodbeh, Al-Jayhoni, Qudama asarlaridagi ma'lumotlardan foydalangan. Kitobda tavsiflangan har bir mamlakat yoki hududning xaritasi ham berilgan. Masalan, Movarounnahr qismiga ilova qilingan qismida Jayhun daryosi, Buxoro, Samarqand, Usturshona, Isfijob, Shosh va Xorazmning shaharlari va viloyatlari xaritalari tasvirlangan. Shuningdek asarda turklar, o'g'uzlar va ularning kundalik mashg'ulotlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Shu sababdan mazkur asar VII–X asrlar Xorazm tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. G'aznaviylar hukmdorligi yillarida Xorazmning siyosiy tarixi haqida ma'lumot beruvchi yana bir tarixiy manba bu "Tarixi Yaminiy" asaridir. Asar muallifi Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor Utbiy (961- 1036) bo'lib, u Somoniylarning Xurosondagi noibi Abu Ali Simjuriy (989-998), Ziyoriylardan Qobus ibn Vashingir (998-1030), G'aznaviylardan Sabuktegin (977-997), Mahmud (998-1030), Ma'sud (1031-1041) saroyida xizmat qilgan. Xattoki, elchi sifatida bir necha bor G'aznaviylar tomonidan qo'shni davlatlarga yuborilgan. Muallif o'zi guvoh bo'lgan voqealarni yoritganligi uchun ushbu asar bu davr tarixini o'rganishda ishonchli manbalar qatorida turadi

Ushbu asar amir Sabuktegin va Sulton Mahmud davrida G'aznaviylar imperiyasi tarkibiga kirgan hozirgi Afg'oniston, Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975-1021-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'zida mujassamlashtirgan. Asarda Qoraxoniylarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi haqida noyob ma'lumotlar keltirilgan. Biroq, asar o'ziga xos kamchiliklardan ham holi emas. Ya'ni, unda hukmdor tabaqaning maqsad va manfaatlari himoya qilingan. Xususan, Sulton Mahmudni ko'klarga ko'tarib maqtash holatlarini uchratish mumkin. Ushbu asarning bitta nusxasi Toshkentda Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda .